

## **«BeeFortuna Plus barabanida Mega Sovrin» aksiyasing o‘tkazilish qoidalari**

*Ushbu Aksiya Beeline Uzbekistan ilovasining foydalanuvchilari xavfiga asoslanmagan va faqat foydalanuvchilarni rag‘batlantirish, ularning sonini saqlab qolish, yangi foydalanuvchilarni jalg qilish va “Unitel” MChJning raqobatbardosh imidjini yaratish uchun mo‘ljallangan.*

«BeeFortuna Plus»da Mega Sovrin» Aksiyasining o‘tkazilish qoidalari (keyingi o‘rinlarda – “**Qoidalari**”) quyidagilarni o‘z ichiga oladi: «BeeFortuna Plus»da Mega Sovrin» Aksiyasining (keyingi o‘rinlarda – “**Aksiya**”) o‘tkazilish tartibi, yituqli o‘yinda ishtirok etish shartlari (keyingi o‘rinlarda – “**O‘yin**”), shuningdek, sovrinlar, ularni g‘oliblarga taqdim etish tartibi va shartlari. “BeeFortuna Plus” Omad chambaragidan foydalanish shartlari bilan “Beeline Uzbekistan” ilovasida tanishishingiz mumkin.

Ushbu Qoidalarda quyidagi tushunchalar qo‘llaniladi:

- **Foydalanuvchi** – muayyan funksiyani bajarish uchun “Beeline Uzbekistan” ilovasidan foydalanadigan jismoniy shaxs;
- **Abonent raqami** – Abonent uskunasini boshqa qurilmalar bilan aloqasi paytida telekommunikatsiya tarmoqlarida identifikasiya qilib, xizmat ko‘rsatish uchun Abonentga shartnoma asosida ajratiladigan raqam.
- **Kompaniya/Operator** – “Beeline” savdo belgisi ostida uyali aloqa xizmatlarini ko‘rsatuvchi va Aksiya tashkilotchisi bo‘lgan “Unitel” MChJ;
- **G‘olib** – tasdiqlangan sovrinlardan birini yutib olgan Aksiya ishtirokchisi;
- **Ishtirokchi** – ushbu Aksiya qoidalariга muvofiq Aksiyada qatnashish huquqiga ega bo‘lgan Beeline Uzbekistan Ilovasining foydalanuvchisi.
- **Beeline Uzbekistan ilovasi** – axborot va texnologik yondashuvlar uchun mo’ljallangan va ixtisoslashtirilgan kompyuter dasturlari mahsulotlari majmuasidan iborat axborot tizimidir.
- **“BeeFortuna Plus” Omad chambaragi** – Beeline Uzbekistan Ilovasi ichida yaratilgan sovrinli O‘yin o‘tkaziladigan funksiya.
- **Kompaniyaning rasmiy sayti** - Kompaniyaning rasmiy veb-sayti: [www.beeline.uz](http://www.beeline.uz).

#### **Aksiya o‘tkazilish muddati:**

2023-yil 11 va 12-noyabr UTC +5 bo‘yicha 10:00 dan 23:59 gacha yoki sovrinli o‘yining tugashigacha, qaysi holat birinchi yuz berishiga qarab.

**Aksiyaning amal qilish hududi:** O‘zbekiston Respublikasi

**G‘oliblarni aniqlash joyi:** “Beeline Uzbekistan” Ilovasida “BeeFortuna Plus” Omad chambaragida.

**G‘oliblarni taqdirlash joyi:** O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., 100047, Buxoro k. 1-uy, shuningdek, “Beeline Uzbekistan” ilovasida.

### **I. Aksiya ishtirokchilariga qo‘yiladigan talablar**

1.1. Aksiyada quyidagi talablarga javob beradigan “Beeline Uzbekistan” ilovasining barcha foydalanuvchilari ishtirok etishlari mumkin:

- “Beeline Uzbekistan” Ilovasining foydalanuvchisi bo‘lib, shu bilan birga, “BeeFortuna Plus” Omad chambaragini eng kamida 1 (bir) marta aylantirgan jismoniy shaxs Ishtirokchi hisoblanadi.

1.2. Quyidagilar Aksiyada ishtirok etish va/yoki sovrinni olish huquqiga ega bo‘lmaydilar:

- Ushbu Qoidalarning 1.1-bandining talablariga javob bermaydigan foydalanuvchilar;
- Aksiya o‘tkazilishi davrida Operator bilan mehnat munosabatlarida bo‘lgan shaxslar, shuningdek, ularning yaqin qarindoshlari, Kompaniyaning ishonchli vakilining xodimlari va ularning yaqin qarindoshlari, ishonchli vakilning o‘zi Aksiyada ishtirok etishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

## **II. Sovrin jamg‘armasi**

### **2.1 Aksiyaning sovrin jamg‘armasi:**

- 1 (bir) dona Apple iPhone 14 Pro 512 GB smartfoni.
- 1 (bir) dona Apple iPad Pro (2022) 1 TB.
- 2 (ikki) dona Redmi Note 12 Ice Blue 6/128 GB 8 smartfoni
- 2 (ikki) dona “Platina” turkumiga kiruvchi chiroqli raqamlardan birini tanlash huquqi, viloyatda mavjud bo‘lganlar orasidan.
- 4 (to‘rt) dona 150 GB hajmdagi 7 kalendarlari kunida amal qiluvchi internet-paketlar.

2.2. G‘olib sovrinni Operatorning O‘zbekiston Respublikasidagi istalgan rasmiy ofisidan olib ketishi mumkin.

2.3. Sovrinni O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablariga muvofiq G‘olib nomiga rasmiylashtiriladi, bunda Kompaniya soliqlarni qoplaydi, qolgan harajatlarni G‘olibning o‘zi tomonidan qoplanadi.

## **III. Aksiyada ishtirok etish va uni o‘tkazish shartlari**

3.1. Quyidagi shartlarni bajarganlar aksiya ishtirokchilari hisoblanishadi:

- “Beeline Uzbekistan” ilovasida “BeeFortuna Plus” Omad chambaragini aylantirishni amalga oshirgan “Beeline Uzbekistan” ilovasining amaldagi va yangi foydalanuvchilari.

3.2. Aksiya quyidagi tartibda o‘tkaziladi:

3.2.1. Aksiya o‘tkazilishi mobaynida “Beeline Uzbekistan” Illoasi Foydalanuvchilarida ushu Qoidalarning 2.1. bandida keltirilgan Sovrinlardan 1 (biri) bor bo‘lgan “BeeFortuna Plus” Omad chambaragini aylantirish imkoniyati mavjud.

3.2.2. Barcha sovrinlar navbat bilan quyidagi tartibda o‘ynaladi:

2023-yil 11-noyabr kuni sovrinlarni o‘tkazish tartibi:

- 1) 7 kalendar kunida amal qiluvchi 150 GB internet-paketi;
- 2) 7 kalendar kunida amal qiluvchi 150 GB internet-paketi;
- 3) Viloyatda mavjud bo‘lgan “Platina” turkumiga kiruvchi raqamlardan birini tanlash huquqi;
- 4) Redmi Note 12 Ice Blue 6/128 GB smartfoni;
- 5) Apple iPhone 14 Pro Max 512 GB smartfoni.

2023-yil 12-noyabr kuni sovrinlarni o‘tkazish tartibi:

- 1) 7 kalendar kunida amal qiluvchi 150 GB internet-paketi;
- 2) 7 kalendar kunida amal qiluvchi 150 GB internet-paketi;
- 3) Viloyatda mavjud bo‘lgan “Platina” turkumiga kiruvchi raqamlardan birini tanlash huquqi;
- 4) Redmi Note 12 Ice Blue 6/128 GB smartfoni;
- 5) Apple iPad Pro (2022) 1TB.

3.2.3. 2023-yil 11-noyabr soat 23:59 (UTC+5) ga qadar topshirilmagan sovrinlar aksiyaning ikkinchi kunida (2023-yil 12-noyabr) xuddi shu tartibda topshiriladi. Shu bilan birga, Aksiya muddati tugagunga qadar (2023-yil 12-noyabr, 23:59 (UTC+5)) yutib olinmagan sovrinlar Kompaniya mulki bo‘lib qoladi. Bunday holda, o‘ynalmagan sovrin keyingi Aksiyalar vaqtida qayta o‘ynaladi.

*Misol uchun, agar sovrin Aksiya tugagunga qadar o'ynalmagan bo'lsa, yangi o'yin Kompaniyaning keyingi Aksiyalarida amalga oshiriladi.*

3.2.4. G'oliblar tasodifiy tarzda aniqlanadi. G'olib "BeeFortuna Plus" Omad chambaragini aylantirgan foydalanuvchilar orasidan tasodifiy tarzda tanlanadi.

3.2.5. "BeeFortuna Plus" Omad chambaragini aylantirgandan so'ng, bir vaqtning o'zida quyidagi majburiy shartlarga javob beradigan shaxs g'olib hisoblanadi:

- "BeeFortuna Plus" Omad chambaragi "Mega Sovrin" bo'limida o'z aylanishini to'xtatganda;
- "Beeline Uzbekistan" ilovasida "BeeFortuna Plus" Omad chambaragi to'xtatilgandan so'ng, ushbu Qoidalarning 2.1-bandda ko'rsatilgan sovrinlardan 1 (birida) nomi yozilgan oyna paydo bo'lganda.

3.2.6. Yutilgan sovrinlar haqidagi ma'lumotlar o'yin o'tkaziladigan kuni real vaqt rejimida Kompaniyaning rasmiy resurslarida, jumladan, Kompaniyaning rasmiy veb-sayti va Operatorning Telegramdagи sahifalarida e'lon qilinadi.

3.2.7. G'oliblarni aniqlash natijalari Aksiya o'tkazilish muddati tugaganidan so'ng 7 (yetti) kalendar kuni ichida Kompaniyaning rasmiy veb-saytida G'olibning raqamini ko'rsatgan holda (abonent raqamining dastlabki uch raqami ko'rsatilmaydi), shuningdek, "Beeline Uzbekistan" mobil ilovasida push-bildirishnomalar yuborish orqali e'lon qilinadi.

3.2.8. Barcha sovrinlar yutib olinganidan so'ng, Kompaniya bu haqida o'zining rasmiy resurslarida e'lon qiladi, shundan so'ng "BeeFortuna Plus" Omad chambaragining ajratilgan bo'limi standart "Promo Kod" sovriniga almashtiriladi.

3.2.9. "BeeFortuna Plus" Omad chambaragi G'olibni aksiya boshlanishidan oldin tanlashga yoki belgilashga imkon beradigan tartib va algoritmlarni o'z ichiga olmaydi.

3.2.10. Kompaniya Aksiya Ishtirokchilari bilan yozma muzokaralar yoki boshqa aloqalarni o'tkazmaslik huquqini o'zida saqlab qoladi, agarda ushbu shartlarda yoki O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablari assosida ko'rsatilmagan bo'lsa.

3.2.11. Kompaniya Aksiya qoidalariga tegishli ma'lumotlarni Kompaniyaning Rasmiy veb-saytida majburiy joylashtirish sharti bilan ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi.

3.2.12. Kompaniya istalgan vaqt Aksiyani to'xtatish huquqini o'zida saqlab qoladi.

3.3. Aksiya haqida ma'lumot Kompaniyaning Rasmiy saytida mavjud. Kompaniya o'zining xohishiga ko'ra Facebook yoki Instagram ijtimoiy tarmoqlaridagi rasmiy sahifalarida Aksiyaga tegishli ma'lumotlarni joylashtirish huquqini o'zida saqlab qoladi.

#### **IV. Sovrirlarni olish shartlari**

4.1. Sovrinni olish uchun Aksiya doirasidagi o'yin G'olibi deb topilgan Ishtirokchi 7 (yetti) kalendar kun ichida Operatorga quyidagi hujjatlarning asl nusxasini va ma'lumotlarni taqdim etadi:

- G'olibning pasporti yoki ID kartasi;
- Soliq qo'mitasi ma'lumotlar bazasida JShShIR raqami bo'Imagan holatlar uchun tuman migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'limidan (pasport bo'limi) JShShIR ni ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi guvohnoma.

4.1.1. Agar G'olib biron-bir sababga ko'ra Sovrinni topshirish jarayonida shaxsan ishtirok eta olmasa, Sovrinni olish uchun hujjatlarni rasmiylashtirish jarayonida ishtirok etish uchun boshqa shaxsga (ishonchli vakilga) tegishli ishonchnoma rasmiylashtirib berishi mumkin.

Bu holda, ishonchli vakil quyidagi hujjatlarni taqdim etishi kerak:

- G'olibning pasporti yoki ID kartasidan nusxa;

- sovrinni olish va sovrinni G‘olib nomiga rasmiylashtirish bilan bog‘liq hujjatlarni imzolash huquqini beruvchi notarial tasdiqlangan ishonchnoma;
- Ishonchli vakilning pasporti yoki ID kartasi;
- Soliq qo‘mitasi ma‘lumotlar bazasida JShShIR raqami bo‘lidan holatlar uchun tuman migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo‘limidan (pasport bo‘limi) JShShIR ni ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi guvohnoma.

4.2. Ushbu qoidalarning 4.1-bandida keltirilgan talablar “7 kalendar kunida amal qiluvchi 150 GB internet-paketi” G‘olibiga nisbatan qo‘llanilmaydi.

4.3. Sovrirlarni taqdim etish tartibi:

4.3.1. Kompaniya ushbu Qoidalarning 4.1-bandiga muvofiq sovrirlarni G‘olib tomonidan barcha zarur hujjatlar taqdim etilgan kundan boshlab 30 (o‘ttiz) kalendar kun ichida berish huquqini o‘zida saqlab qoladi.

4.3.2. “Platina” turkumidagi raqam sovrin g‘olibi Kompaniyaning rasmiy ofisida mavjud raqamlar ro‘yxatidan tanlashi mumkin.

4.3.3. G‘olib aniqlangan kundan boshlab 7 (yetti) kalendar kun ichida 7 (yetti) kalendar kun uchun 150 GB hajmdagi internet-paket G‘olibga taqdim etiladi.

4.4. Kompaniya, sovrirlarni G‘oliblarga topshirishda soliqlarni (shu jumladan, jismoniy shaxslarning mukofot qiymatidan daromad solig‘i) va yig‘imlarni O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi nazarda tutilgan tartibda mustaqil ravishda to‘laydi.

4.5. Sovrinni rasmiylashtirishda va olib ketish jarayonida G‘olib barcha kerakli hujjatlarni shu jumladan G‘olibning shaxsiy ma‘lumoti, sovrinning QQS bilan ko‘rsatigan narxi va boshqa to‘liq ma‘lumot ko‘rsatilgan barcha kerakli hujjatlarga imzo qo‘yishi kerak.

4.6. Sovrin G‘olibga barcha kerakli hujjatlar imzolanganidan so‘ng topshiriladi.

4.7. Agar G‘olib Toshkent shahrida emas, O‘zbekiston Respublikasining boshqa shahrida yashasa, Kompaniya Sovrinni G‘olib yashash manziliga yaqin bo‘lgan Kompaniya ofisiga yetkazib berish majburiyatini oladi.

4.8. Kompaniya quyidagi holatlarda G‘olibga Sovrinni berishdan bosh tortish huquqiga ega:

- G‘olib Sovrin e’lon qilingan kundan boshlab 7 (yetti) ish kuni ichida Kompaniya bilan bog‘lanmaganda;
- G‘olib Sovrin e’lon qilingan paytdan boshlab 7 (yetti) ish kuni ichida 4.1-bandda ko‘rsatilgan kerakli hujjatlarni taqdim etmagan va/yoki taqdim etilgan hujjatlar Aksiya va O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablariga javob bermaganda;
- G‘olib o‘z imzosini qo‘yishdan va/yoki boshqa qonuniy ahamiyatga ega bo‘lgan harakatardan, shu jumladan, zarur hujjatlarni taqdim etishdan bosh tortganda;
- G‘olibni sovrin yutganligi to‘g‘risida xabar qilishning imkoniyati bo‘lidanida - g‘olibning raqami bloklangan, tarmoqdan tashqarida, Kompaniyaga bog‘liq bo‘lmagan boshqa sabablarga ko‘ra g‘olib telefonni ko‘tarmagan va/yoki aloqaga chiqmagan holatlarda;
- G‘olib tomonidan Aksiyada ishtirok etish shartlari buzilishi aniqlanganda.

## V. Alovida qo'shimchalar.

5.1. Agar G'oliblar biron-bir sababga ko'ra sovrinlarga da'vo qilmasa yoki olishdan bosh tortsa, talab qilinmagan sovrin Kompaniyaning mulki bo'lib qoladi. Bunday holda, o'ynalmagan sovrin keyingi Aksiyalar vaqtida qayta o'ynaladi.

*Masalan, 2023-yil 11-noyabrda G'olib bo'lgan ishtirokchi Sovringa da'vo qilmadi. Yangi o'yin Kompaniyaning keyingi Aksiyalarida amalga oshiriladi.*

5.2. Agar G'olib ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan barcha talab va shartlarga rioya qilmasa, Kompaniya G'olibga sovrinni taqdim etishni rad etishga haqlidir.

5.3. Kompaniya quyidagi holatlar uchun javobgar emas:

- Ishtirokchilar Kompaniya saytida joylashtirilgan G'oliblar ro'yxati bilan tanishish imkoniyati bo'lmaganida;
- Sovrirlarni olish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar/hujjatlar ishtirokchilarining aybi bilan yoki boshqa sabablarga ko'ra topshirilmagan/o'z vaqtida topshirilmaganida;
- Aksiya shartlarida ko'zda tutilgan talablarni ishtirokchilar tomonidan bajarilmaganida (o'z vaqtida bajarilmaganida);
- G'oliblar sovrinlarga da'vo qilmagan yoki rad etganligi uchun olmaganlarida;
- Uchinchi shaxslarning aybi va/yoki fors-major holatlari tufayli G'oliblarga sovrinlarni topshirish bo'yicha majburiyatlarni bajarishning imkonini bo'lmagan holatlarida.

5.4. Aksiyada ishtirok etish bilan Ishtirokchi:

- Aksiya shartlari bilan to'liq tanishligini tasdiqlaydi va rozi bo'ladi;
- foto-video tasvirga olishda qatnashishga va ijtimoiy tarmoqlarda suratini e'lon qilishga roziliginini tasdiqlaydi;
- Kompaniya tomonidan shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishslash va saqlashga roziliginini tasdiqlaydi.

5.5. Aksiyani o'tkazish bilan bog'liq barcha nizolar muzokaralar yo'li bilan hal qilinishi kerak. Agar nizo kelib chiqqan kundan boshlab 60 (oltmish) kalendar kuni ichida tinch yo'l bilan kelishuvga erishishning imkonini bo'lmasa, nizo O'zbekiston Respublikasi Toshkent shahar fuqarolik ishlari bo'yicha Mirobod tumanlararo sudiда ko'rib chiqilishi kerak.

5.6. Sovrinda nuqsonlar yoki boshqa zavod nosozliklari aniqlangan taqdirda, G'olib mukofot topshirilgan va G'olib o'tkazmani qabul qilish dalolatnomasini imzolagan paytdan boshlab 10 (o'n) ish kuni ichida Kompaniyaning bosh ofisiga murojaat qilishi zarur. G'olibning yutuq uchun belgilangan foydalanish yoki saqlash qoidalarini buzishi yoki uchinchi shaxslarning harakatlari yoki fors-major holatlari tufayli yutuq G'olibga topshirilgandan keyin yuzaga kelgan kamchiliklar uchun Kompaniya javobgar bo'lmaydi.